



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK  
XO‘JALIGI  
2024- YIL YANVAR-SENTABR OYLARI  
(dastlabki ma’lumot)**






## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida

### Xorazm viloyatining

### qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 21 616,3 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar 21 089,4 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 172,1 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 354,8 mlrd soʻmni tashkil qildi.

#### Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar







Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va  
baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari  
hajmining oʻsish surʻati

01



Dehqonchilik  
va chorvachilik,  
ovchilik va ushbu  
sohalarda koʻrsatilgan  
xizmatlar – **104,1 %**

02



Oʻrmon xoʻjaligi –  
**102,9 %**

03



Baliqchilik xoʻjaligi –  
**104,5 %**

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 104,1 % ni, oʻrmon xoʻjaligi – 102,9 % ni, baliqchilik xoʻjaligi – 104,5 % ni tashkil qildi.




**Ma'lumot uchun:**  
 Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi:

✓ Jami don	—	123,1 %
✓ Pilla	—	116,9 %
✓ Uzum	—	105,2 %
✓ Sabzavot	—	104,4 %
✓ Go'sht	—	104,0 %
✓ Poliz Asal	—	102,6 %



## Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**




2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 97,6 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlari (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida 97,5 %), 0,8 %i – o'rmon xo'jaligi (0,8 %), 1,6 %i – baliqchilik xo'jaligi (1,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.



## Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd so'm

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urganch (2 591,7 mlrd so'm), Qo'shko'pir (2 257,9 mlrd so'm) va Bog'ot (2 253,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahrini (61,5 mlrd so'm), Urganch shahrini (477,3 mlrd so'm) hamda Tuproqqal'a tumanini (549,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.




**Ma'lumot uchun:**

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida Qo'shko'pir, Urganch va Bog'ot tumanlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, tuxum, don, sabzavot, poliz, meva va rezavorlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqal'a tumani kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.




**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**






## Viloyatda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulushga ega hududlar



Hududlar boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining oʻsish surʼati, % da



Yuqori oʻsish surʼatlari Tuproqqalʼa (111,8%), Xiva (106,3%) va Xonqa (105,9%) tumanlarida qayd etildi.





## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

	<i>Hajmi mlrd so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>21361,2</b>	<b>104,6</b>	<b>98,8</b>
Urganch sh	421,9	102,5	88,4
Xiva sh	61,4	100,9	99,9
Bog‘ot	2199,7	106,7	97,6
Gurlan	1984,2	100,6	99,9
Qo‘shko‘pir	2243,4	105,8	99,4
Urganch	2582,8	103,4	99,7
Hazorasp	2079,5	106,1	99,8
Tuproqqal‘a	549,0	112,2	99,9
Xonqa	2170,3	106,4	98,7
Xiva	1756,3	106,7	99,7
Shovot	1721,7	103,8	100,0
Yangiariq	1776,5	103,5	96,3
Yangibozor	1814,3	101,2	99,2

Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 99,8 % ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichni hududlar bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega bo‘lgan Shovot tumani (100,0 %) va boshqa ko‘pgina tumanlarni (97,6 %-99,9 %) keltirishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkich Yangiariq tumanida 96,3 % va Urganch shahrida 88,4 % ni tashkil etdi.





## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari



**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** — hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 20 807,9 mlrd so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 8 510,5 mlrd so'mni (105,1 %), chorvachilik mahsulotlari 12 297,4 mlrd so'mni (103,3 %) tashkil qildi.





## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Dehqonchilik mahsulotlari**




**Chorvachilik mahsulotlari**





## QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI



Xorazm viloyati  
2024- yil yanvar- sentabr




**20807,9**  
mlrd so'm

O'sish surati

**104,0 %**



Qishloq, o'rmon va baliqchilik  
xo'jaligining umumiy  
hajmdagi ulushi, % da




Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (12,2 %), Bog'ot (10,4 %), Qo'shko'pir (10,3 %) va Xonqa (10,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (111,4 %), Xiva (106,7 %), Xonqa (105,6 %) va Bog'ot (105,2 %) tumanlarida qayd etildi.



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da



**Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**


- 01 ► **Bog'ot**
- 02 ► **Xonqa**
- 03 ► **Tuproqqal'a**

- Urganch sh ◀ 01
- Xiva sh ◀ 02
- Hazorasp ◀ 03





## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,2 %i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,8 %i – fermer xo'jaliklariga, 6,0 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun:


Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Sog'ib olingan sut — 94,9 %
- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 88,2 %
- ✓ Qirqib olingan jun — 85,9 %
- ✓ Sabzavotlar — 84,6 %
- ✓ Kartoshka — 74,4 %





## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da




2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a (33,0 %) va Yangibozor (32,3 %) tumanlarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (17,5 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Yangiariq tumanida (14,6 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal'a tumanida (57,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida kuzatildi.




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi**

**Dehqonchilik mahsulotlari**



**Chorvachilik mahsulotlari**



**Fermer xo'jaliklari**


**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**






## Dehqonchilik mahsulotlari



Qishloq xo'jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da



Viloyatda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Bog'ot (12,9 %), Xonqa (11,8 %), Urganch (10,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (122,4 %), Xiva (112,7%) va Hazorasp (112,3%) tumanlarida qayd etilgani kuzatiladi.




## Jami don



Xo'jalik toifalari orasida jami don yetishtirishning eng katta hajmi 346 200 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 72,5 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 32,8 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,7 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 16,5 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha jami don yetishtirish



Hududlar o'rtasida jami don yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xonqa va Gurlan tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 11,9 % va 11,7 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch va Shovot (10,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a (4,2 %) va Yangiariq tumanlarida (5,8 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (160,0 %), Xiva (140,2), Bog'ot (135,6 %), Xonqa (127,7 %), Gurlan (124,3 %), Urganch (123,1 %) va Yangibozor (121,2 %) tumanlarida qayd etildi.




## Bug'doy

<b>Fermer xo'jaliklari</b>	<b>293852 tonna</b>
<b>Dehqon va tomorqa xo'jaliklari</b>	<b>78200 tonna</b>
<b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b>	<b>16423 tonna</b>

Xo'jalik toifalari orasida bug'doy yetishtirishning eng katta hajmi 293 852 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 75,6 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 36,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 13,3 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha bug'doy yetishtirish




Hududlar o'rtasida bug'doy yetishtirish tarkibining asosiy qismini Shovot va Xonqa tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 11,5 % va 11,3 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch (11,1 %) va Gurlan (10,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,1 %) va Tuproqqal'a tumanida (3,8 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (195,6 %), Xiva (144,3 %) va Xonqa (135,2 %) tumanlarida qayd etildi.






## Kartoshka



Xo'jalik toifalari orasida kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 31160 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 74,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 1,1 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,0 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 56,5 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish



Hududlar o'rtasida kartoshka yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch va Xonqa tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 14,9 % va 13,2 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (12,1 %) tumanida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva (0,2 %) va Urganch (0,7 %) shahrida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (117,4 %), Qo'shko'pir (104,8 %) va Yangiariq (103,8 %) tumanlarida qayd etildi.




## Sabzavotlar

<b>Fermer xo'jaliklari</b>	<b>50126 tonna</b>
<b>Dehqon va tomorqa xo'jaliklari</b>	<b>361375 tonna</b>
<b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b>	<b>15501 tonna</b>

Xo'jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 361 375 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 84,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 13,1 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,0 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 11,3 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish



Hududlar o'rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Xiva tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 14,3 % va 12,3 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch (11,8 %) va Xonqa (11,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch (0,3 %) va Xiva (0,6 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Xiva (112,3 %) va Tuproqqal'a (109,6 %) tumanlarida hamda Xiva shahrida (109,6 %) qayd etildi.




## Poliz

<b>Fermer xo'jaliklari</b>	<b>50839 tonna</b>
<b>Dehqon va tomorqa xo'jaliklari</b>	<b>56017 tonna</b>
<b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b>	<b>4122 tonna</b>

Xo'jalik toifalari orasida poliz mahsulotlari yetishtirishning eng katta hajmi 56 017 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 50,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 1,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 1,2 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha poliz mahsulotlari yetishtirish



Hududlar o'rtasida poliz mahsulotlari yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch, Xonqa va Yangibozor tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 15,3 % va 13,0 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Qo'shko'pir (12,3 %) tumanida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,3 %), Tuproqqal'a (2,2 %), Gurlan (6,3 %) va Bog'ot (6,8 %), tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a tumanida (132,5 %) qayd etildi.




## Meva va rezavorlar

<b>Fermer xo'jaliklari</b>	<b>51091 tonna</b>
<b>Dehqon va tomorqa xo'jaliklari</b>	<b>82603 tonna</b>
<b>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</b>	<b>1847 tonna</b>

Xo'jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 82 603 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 60,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 6,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,7 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 58,8 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish



Hududlar o'rtasida meva va rezavorlar yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xiva va Bog'ot tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 12,7 % va 12,3 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (12,2 %), Qo'shko'pir va Yangiariq (10,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva (0,1 %) va Urganch (0,2 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Gurlan (114,5 %), Xiva (104,8 %), Qo'shko'pir (104,4 %) va Yangibozor (104,3 %) tumanlarida qayd etildi.






## Uzum



Xo'jalik toifalari orasida uzum yetishtirishning eng katta hajmi 23 853 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 68,9 %i i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 15,7 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 87,6 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish




Hududlar o'rtasida uzum yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 35,4 % va 12,3 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Yangibozor (11,5 %) va Xiva (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch (0,1 %) va Xiva (0,4 %) shaharlarida kuzatildi.


Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (119,8 %), Shovot (113,1 %), Xiva (110,3 %), Yangibozor (109,4 %) va Qo'shko'pir (108,2 %) tumanlarida qayd etildi.



## Chorvachilik mahsulotlari



Qishloq xo'jaligining umumiy hajmidagi ulushi, % da



Viloyatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (13,2 %), Qo'shko'pir (10,5 %), Gurlan (10,1 %), Xonqa (9,2 %), Yangiariq (9,1 %) va Bog'ot (8,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'ati Gurlan (110,8 %) va Yangibozor (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.



## 2024- yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari


	<b>Barcha toifadagi xo'jaliklar</b>		<b>shu jumladan:</b>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna ,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Go'sht (tirik vaznda)	146 991	104,0	4 958	105,7	129 579	104,4	12 454	99,8
<i>Sut</i>	944 334	102,7	44 079	101,4	896 363	102,8	3 892	85,1
Tuxum mln, dona	388,5	101,6	39,3	102,1	279,5	101,1	69,7	103,4
Jun	1 199	102,3	137	109,6	1 030	100,1	32	177,8
Pilla	2 523,0	116,9	982,7	136,7	-	-	1 540,3	107,1
Baliq	14 704,3	104,6	10 562,7	104,0	776,5	106,7	3 365,1	106,2

2024- yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 3,4 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sut yetishtirishning 4,7 %i fermer xo'jaliklariga, 94,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, olingan tuxumning 10,1 %i fermer xo'jaliklariga, 71,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Ovlangan baliqning 71,8 %i fermer xo'jaliklariga, 5,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.




## Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 147,0 ming t. go'sht (2023–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.






**Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna**






## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 944,3 ming t. sut (2023– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 2,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,9%i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Hududlar bo'yicha sut yetishtirish, tonna






## Tuxum


**Hajmi, mln dona**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 388,5 mln dona tuxum (2023– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 1,6 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 71,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.






Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona






## Baliq


**Hajmi,tonna**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 14 704,3 tonna (2023– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 4,6 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 71,8 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna





## 2024- yilning 1- oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<b>Barcha toifadagi xo'jaliklar</b>		<b>shu jumladan:</b>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Yirik shoxli qoramollar	967,1	100,8	79,6	106,1	872,6	100,3	14,9	106,7
<i>shundan, sigirlar</i>	369,1	100,5	33,0	107,1	330,3	99,8	5,8	108,6
Qo'y va echkilar	501,9	102,8	86,0	103,0	382,5	100,7	33,4	136,0
Otlar	5,5	100,7	0,8	107,2	4,6	99,5	0,1	109,0
Parrandalar	7235,5	106,1	1133,2	107,2	3946,6	100,4	2155,7	117,4


2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,1 %i fermer xo'jaliklariga, 76,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, otlarning umumiy sonidan 15,1 %i fermer xo'jaliklariga, 83,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan 15,7 %i fermer xo'jaliklariga, 54,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.






## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 967,1 mingtaga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 8,0 mingtaga (0,8 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollar bosh sonlari, ming bosh






## Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 369,1 mingtaga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 2,0 mingtaga (0,5 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



**Sigirlar, ming bosh**









## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 501,9 mingtaga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilarning bosh soni 13,8 mingtaga (2,8 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami qo'y va echkilarning 76,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Qo'y va echkilar, ming bosh






## Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 5 538 taga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 40 boshga (0,7 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 83,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.



Otlar, bosh









## Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 7 235,5 mingtaga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 413,3 mingtaga (6,1 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 54,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## Parrandalar, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96